

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 657: 330.(575.1)**

Saydullayeva Zaynaboy A'zam qizi

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA INVESTITSİYALAR
HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

Mutaxassislik: 5A230901 - «Buxgalteriya hisobi» (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n., prof. Ergasheva Sh.T.

Toshkent-2021

Mazkur dissertatsiya ishida, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobining nazariy-uslubiy, investitsiyalarni jalb qilish va hisobga olish holati jihatlari tadqiq qilingan hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida investitsiyalar hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

This dissertation reveals the peculiarities of investment accounting in economic entities in the context of modernization of the economy. Also, the theoretical and methodological aspects of investment accounting in business entities, the state of investment attraction and accounting were studied, and scientific proposals and practical recommendations for improving investment accounting on the basis of international financial reporting standards were given.

Magistrlik dissertatsiya ishi — “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 42 - sonli bayonnoma « 22 » 06 2021 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., prof. Sh.T.Ergasheva

Sh.T.Ergasheva
imzo

25.06.21
sana

Magistr: Z.A. Saydullayeva

Z.A. Saydullayeva
imzo

25.06.20
sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası
mudiri, i.f.d. N.Abdusalomova N.Abdusalomova
“ 22 ” 06 2021 yil

Himoya 2021 yil « 29 » 06 soat 14 da Toshkent davlat iqtisodiy universitetida bo'lib o'tadi.

Mundarija

	Kirish	4
I BOB.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobining nazariy uslubiy asoslari	11
1.1.	Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarning turgan o'rni va ahamiyati	11
1.2.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiya qilish tamoyillari	24
1.3.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobini tashkil qilishning nazariy-uslubiy asoslari	32
	I bob bo'yicha xulosa	42
II BOB.	“PERFECT BUILDING STROY” mas'uliyati cheklangan jamiyatida investitsiyalar hisobining hozirgi holati	45
2.1.	“PERFECT BUILDING STROY” mas'uliyati cheklangan jamiyatida investitsiyalarni jalb qilish va hisobga olish holati.....	45
2.2.	“PERFECT BUILDING STROY” mas'uliyati cheklangan jamiyatida MHXS asosida investitsiyalarni hisobga olishning amaliy jihatlari	57
2.3.	“PERFECT BUILDING STROY” mas'uliyati cheklangan jamiyatida investitsiyalarni hisobga olishdagi asosiy masalalari.	70
	II bob bo'yicha xulosa	78
III BOB.	“PERFECT BUILDING STROY” mas'uliyati cheklangan jamiyatida investitsiyalar hisobini takomillashtirish yo'nalishlari	80
3.1.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiyalar hisobining samaradorligini baholash va rivojlantirish istiqbollari	80
3.2.	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida investitsiyalar hisobini takomillashtirish yo'nalishlari.....	89
	III bob bo'yicha xulosa	96
	Xulosa va takliflar	99
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	103

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mustaqillikning so'nggi yillarida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirishni qo'llab-quvvatlashga va investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, albatta xalqning turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va aholi bandligini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.¹

Shuning uchun ham, mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirishni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishni tez sur'atlarda rivojlantirish iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish va iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida mahsulot sifatini oshirishga, pirovardida mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan uzviy bog'liqdir.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarishni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va unda xorijiy investitsiyalarni, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol o'zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish bilan birga, qo'shimcha moliyalashtirish manbasini topish imkonini beradi.

Shuning uchun ham, Respublikamiz Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021" yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi №PF-1947 sonli Farmoni. //Halq so'zi. 2017 yil 8 fevral.